

## O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASIDA KUY VA MATN UYG'UNLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7786690>



ELSEVIER



Received: 22-03-2023

Accepted: 22-03-2023

Published: 22-03-2023

**Isaqov Abrorbek Odiljon o'g'li**  
Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti  
"Vokal va cholg'u ijrochiligi pedagoglari tayyorlash" kafedrasida o'qituvchisi



**Abstract:** Ushbu maqolada o'zbek milliy musiqa san'atida kuy va matnning o'zaro bog'liqligi klassik shoirlarimiz g'azallari misolida yoritib beriladi.

**Keywords:** Kuy, ohang, Abdurahmon Jomiy, Nag'ma, zarb va ohang, musiqiy fikr, musiqiy jumla, monodiya, Abdulqodir Marog'iy, Munajat.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-03-2023

Accepted: 22-03-2023

Published: 22-03-2023

**Abstract:** В данной статье будет объяснена взаимосвязь мелодии и текста в узбекском национальном музыкальном искусстве на примере газелей наших поэтов-классиков.

**Keywords:** Мелодия, напев, Абдурахман Джамии, песня, ритм и тон, музыкальная мысль, музыкальная фраза, монодия, Абдулкадир Мароги, Муноджат.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 22-03-2023

Accepted: 22-03-2023

Published: 22-03-2023

**Abstract:** This article will explain the relationship between melody and text in the Uzbek national musical art on the example of the ghazals of our classical poets.

**Keywords:** Melody, tune, Abdurrahman Jami, song, rhythm and tone, musical thought, musical phrase, monody, Abdulkadir Marogi, Munajat.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

"Kuy, ohang-inson ruhidagi ilohiy kayfiyat ifodasi. Musiqiy asarning g'oyasi, tasavvuri dastlab hayolda paydo bo'lib, so'ngra ijro tufayli sadolanish yo'li bilan jonlanadi. Muayyan kuy shaklga aylanadi. Ohang sadosining umri juda qisqa: paydo bo'lishi bilanoq bir zumda nazardan qochadi, g'oyib bo'ladi. Lekin ta'sirli tovush, ohang eshituvchi qalbida iz qoldiradi, zavq uyg'otadi va hu lazzatli holatga qaytadan intilishga da'vat etadi. Bu jozibani Mavlono Abdurahmon Jomiy juda go'zal ifodalaganlar. "Nag'malar ta'lifotida boshqa hech bir ta'lifotda uchramaydigan shunday xususiyat borki, ular bir-biriga muvofiq (muloyim) bo'lganda ruhga tez yetib borib, huzurbaxsh etish bilan uni butunlay chulg'ab o'ziga rom etadi. Lekin ruh undan huzur ola boshlaganda u yo'qlik pardasiga o'ranib, g'oyib bo'ladi. Uning yo'qolishi umidsizlik hosil qilsa, yana umidsizlik kayfiyati tamom bo'lmasdan turib, keying paydo bo'lgan nag'ma avvalgi huzurning qaytib kelishini ta'minlaydi va hu tarzda nag'malar ta'lifi muvofqlikda o'zaro almashib takrorlanib turadi".

Kuy shavqini saqlab qolishning eng oddiy yo'llaridan biri - dilda paydo bo'lgan holatni yaqin qalblar bilan baham ko'rish. Agar kuyning dastlabki ohangi qabul qilinsa, befarq qolmasdan ta'sir o'tkazsa, mazkur zavq lazzatini davom ettirish ishtiyoqi uyg'onadi. Ushbu ruhiy holatda ijrochi va eshituvchining qablari bog'lanib, ular kuydan birdek ozuqa ola boshlaydi. Ana shunday his-tuyg'ular tutashuvidan uyg'unlashgan musiqa jarayoni yuzaga keladi va unda ijrochi ijodkor - yaratuvchiga, eshituvchi esa uning muxlisiga aylanadi. Bu zavq tobora rivojlanib, ohanglar birlashib, ku jumllariga, ular esa o'z navbatida yanada yirikroq birikmalarga aylanib boradi. Shu tariqa birlamchi zarb va ohang zarrachalaridan butun boshli kuy paydo bo'ladi. Ular tutashuvidan yirik asarlar yuzaga keladi. Demak, musiqa shunchaki tovushlar majmuasi emas, aksincha, parda va usullarning muvofiqlashgan tizimidir. Eng muhimi, kuy-bu yoqimli tovushlar vositasida ifodalangan ma'no. Ma'nosiz tovushlar esa shovqin-surondan bo'lak narsa emas. Ayniqsa, an'anaga aylangan e'tiborli kuylar negizida shunday chuqur ma'nolar yotadiki, xalq xotirasi ularni mumtoz asarlar sifatida saqlab keladi.

"Kuy (qad. turkcha ko'ch, xitoycha syuy -ohang so'zidan) melodiya - 1) musiqa san'atida asosiy ifoda vositasi, bir ovozli badiiy tugallangan musiqiy fikr; turli balandlik va cho'zimdagi musiqiy tovushlarning o'zaro uyushib tugal shaklga tushgan birikmasi. Musiqiy jumla va iboralarga bo'linadi. Kuy bir ovozli musiqa tizimiga asoslangan monodiyada, shuningdek, ko'p ovozli polifoniya (boshqa ovozdagi kuylar bilan birgalikda) hamda gomofoniya (akkordlar yoki boshqa ovozlarda jo'rlikida) uslublarida namoyon bo'ladi. Monodik musiqada kuy tugal badiiy obrazning yagona musiqiy ifodasi hisoblanadi, ko'p ovozli musiqada esa badiiy mazmun bosh ovoz yoki bir necha ovozlarda, shuningdek garmoniya va kontrapunkt vositalari orqali ham ifodalanadi.

Kuy musiqaning ko'p bo'g'inli ifodaviy vositasidir, unda aksariyat musiqa unsurlari- tovushqator, lad, ritm (vazn-usul), ijro sur'ati, cholg'u tovushi va inson ovozinin tusi (tembr) va b. mujassamlashgan. Kuy an'anaviy hamda kompozitorlik musiqa ijodining eng qimmatli badiiy vositasi hisoblanib, unda tarixiy va mahalliy uslublar, milliy ohang hamda musiqiy tushunchalar o'z aksini topadi. O'rta asrlar turkiy adabiyotida Abdulqodir Marog'iy, Navoiy kuni ko'g (ba'zan-ko'k) deb atashgan: Dedim tarovaye jonbaxsh mutribo, sen xud Firoq sozi tuzib ulturur ko'gi cholding.

Kuy va matn uyg'unligi avvalo she'rning qanday ruhda yozilganiga bog'liqdir. Agarda she'r sho'x, jo'shqin, xursandchilik ruhida yozilgan bo'lsa unga o'z-o'zidan tez o'ynoqi, raqs bob ritm jo'r bo'ladi. Tinglovchiga ham birday manzur bo'ladi, hatto raqsqa chorlaydi. Aksincha mahzun, o'ylovli, sokin ruhda

yozilgan matn bo'lsa, unga ishlangan ritm, kuy ham matn so'zlaridan kelib chiqib mos tushadigan ohang orqali inson qalbiga yetib boradi.

Bir she'rni yoki oddiygina kuyni inson qalbiga ta'siri avvalo o'sha yaratuvchisining yurak-yuragidan chiqqan ohu-fig'onlari, nolishlari, dardlari yoki aksincha quvonchu shodliklari, baxtlari tinglovchiga huzur va orom bag'ishlaydi, dil torlari orqali yaratuvchidan eshituvchiga yetib boradi va qalbdan joy oladi. Bunda albatta she'rning o'rni katta. Chunki matn qanchalik ta'sirli, ifodali, ma'no-mazmunli yoziqlan bo'lsa, bastakor uni o'qib o'z-o'zidan qalbi jumbushga keladi va ta'sirlanganidan kuy, ohang paydo bo'ladi. Ana shunday go'zal, quloqqa yaqin ohanglardan biri:

*Kecha kelgumdur debon ul sarou gulro' kelmadi,*

*Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.*

- v - - | - v - - | - v - - | - v -

**Foilotun foilotun foilotun foilon**

**Munojat** ashulasini Navoiy g'azali bo'lib, uni tahlil qilganimizda g'azal ramali musammani mahzuf vaznida yoziqlan. Ushbu vaznda foilotun 3 marotaba takrorlanib, 4-rukn foilon shaklida keladi. Aynan oxirgi rukn foilonning vazndagi nomi mahzuf bo'lgani uchun vazn ramali musammani mahzuf deb ataladi. Taqti'si yuqoridagidek yoziqladi.

O'tmishdan ma'lumki, tinglovchilarning kayfiyati va hofizning ilhomiga qarab, maqom yo'llari turli she'rlar bilan aytilavergan. Shuning uchun ham bir maqomning bir necha she'riy matn variantlari bo'lgan. Avvalgi fors-tojik tilida ijro etilgan maqomlarning ko'pchiligi bugungi kunda butun Shashmaqom turkumini notaga tushurgan akademik Yunus Rajabiy tomonidan tanlangan Alisher Navoiy g'azallari bilan ijro etiladi. Darhaqiqat, nazm o'zining navosi bilan, ohangi bilan yaratilmasa, uni kuyga solish mushkul.

Anglash mumkinki, biror-bir so'zning ohangi - musiqiy sado bilan uyg'unligini mutafakkir shubhasiz bilgan va bundan o'rinli foydalangan. Alisher Navoiy aruz nazariyotchisi sifatida o'zbek she'riyatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yoqimli, musiqiy bahr hamda vaznlar doirasini belgilab bergan va ularning ritm-ohang imkoniyatlarini ko'plab misollar bilan isbotlab ko'rsatgan. Aruz bahrlarining o'zbek xalq og'zaki she'riyatidagi o'lchovlar bilan munosabatini o'rganib xalq qo'shiqlari vaznlarining yozma ijodda foydalanilishi mumkin bo'lganlarini belgilab chiqqan. Navoiyning musiqa va aruz rivoji munosabatlari haqidagi fikrlari ham alohida ahamiyatga egadir. Navoiy, xususan, ramali musammani mahzuf va ramali musammani maqsur vaznlarining musiqiylik xususiyatini alohida ta'kidlagan edi. Jumladan, "qo'shuq" deb atalgan surud haqida fikr yuritar ekan: "ammo bu latif zamonda va sharif davronda bu *surud*ni ramali musammani mahzuf vaznig'a elitib *musiqiy* va

*advor* ilmida muloyim tab'lig' benazir yigitlar g'arib *nag'omat* va *alhon* bila ajab tasarruflar qilib, sultoni sohibqiron majlisida ayturlarki, uning muloyimlig' va xush oyandalig'i vasfg'a sig'mas va ta'sir va raboyandalig'i sifatqa rost kelmas, balki ul hazratning ixtiroidir...", [Navoiy, 2000: 180] deb yozadi.

Alisher Navoiy aruz nazariyotchisi sifatida o'zbek she'riyatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yoqimli, musiqiy bahr hamda vaznlar doirasini belgilab bergan va ularning ritm -ohang imkoniyatlarini ko'plab misollar bilan isbotlab ko'rsatgan. Aruz bahrlarining o'zbek xalq og'zaki she'riyatidagi o'lchovlar bilan munosabatini o'rganib, xalq qo'shiqlari vaznlarining yozma ijodda foydalanilishi mumkin bo'lganlarini belgilab chiqqan. Musiqa va she'riyatning umumiy birikuviga, ularning o'aro mutanosib san'at turlari ekanligini ta'kidlab aytish mumkinki, umuman, musiqa va she'riyat egiz tushunchalardir. Ritm she'riyatga musiqadan kirib borgan. She'rlar ilgari kuylash uchun yoki musiqa jo'rligida aytish uchun yaratilgan (deklamatsiya antik davrlarda ham musiqa jo'rligida aytilgan).

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi ichidan yetishib chiqqan baxshilar, oqinlar hozirgacha ham an'anaviy dostonlar va termalarni musiqiy cholg'u jo'rligida aytadilar. Musiqada ham, she'riyatda ham ritm bor. Ammo musiqadagi ritm musiqiy tovushga, she'riyatdagi ritm esa nutq tovushiga asoslanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Абдурашидов А. Шашмақом ва масоили инкишофи он.- Душанбе 2012.
2. Абдурашидов А. Фарханги Тафсирий Истилохоти Шашмақом.
3. "Alisher Navoiy va Musiqa" mavzuidagi ilmiy konfrensiya materiallari ( 18-fevral 2011 y) Toshkent „MUMTOZ SOZ“ 2011. 32-bet.
4. "Alisher Navoiy va musiqa" mavzuidagi ilmiy konfrensiya materiallari.- Toshkent 2011.
5. Рахмонова С. Шарқ шеърлятига кириш.-Тошкент 2020.
6. Rahmonova N. "MAQOM TURKUMIDAGI G'AZALLARDA RITMIK VARIATSIYA HODISASI" nomli magistirlilik dissertasiyasi. T., 2022.
7. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish.-Toshkent.:Akademnashr 2020.